

O'TKIR HOSHIMOV IJODI VA "IKKI ESHIK ORASI" ROMANINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Ziyodullayeva Zulfizar Zafar qizi

Buxoro davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7394004>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalqining zabardast vakili, taniqli yozuvchisi O'tkir Hoshimov va uning insonlar taqdiri hamda inson umrining murakkabligi mahorat bilan tasvirlangan "Ikki eshik orasi" romanini o'rganishda metodik tavsiyalar, turli zamonaviy usullardan samarali foydalanish haqida so'z boradi. Maqolada "Qora oyna", "2x1", "Yelpig'ich", "Men kimman?" va "Smayliklar" usullardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: O'tkir Hoshimov, "Ikki eshik orasi", "Qora oyna", "Yelpig'ich", qahramonlar, "Men kimman?", "2x1".

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ИЗУЧЕНИИ ТВОРЧЕСТВА ОТКИРА ГАШИМОВА И РОМАНА "МЕЖДУ ДВУМЯ ДВЕРЯМИ"

Аннотация. В данной статье говорится о методических рекомендациях и эффективном использовании различных современных методов при изучении романа «Между двумя дверями» видного представителя узбекского народа, известного писателя Откира Хошимова и его романа «Между двумя дверями». Двери мастерски описывает судьбы людей и сложности человеческой жизни. В статьях «Черное зеркало», «2x1», «Фанат», «Кто я?» использовались методы «смайликов».

Ключевые слова: Откир Гашимов, «Между двух дверей», «Черное зеркало», «Веер», герои, «Кто я?», «2x1».

USE OF INTERACTIVE METHODS IN STUDYING THE CREATION OF O'TKIR HASHIMOV AND THE NOVEL "BETWEEN TWO DOORS"

Abstract. This article talks about methodical recommendations and effective use of various modern methods in studying the novel "Between Two Doors" by O'tkir Hoshimov, a prominent representative of the Uzbek people and a well-known writer, and his novel "Between Two Doors" skillfully describes the fate of people and the complexity of human life. In the article "Black Mirror", "2x1", "Fan", "Who am I?" and "Smilies" methods were used.

Keywords: O'tkir Hashimov, "Between Two Doors", "Black Mirror", "Fan", heroes, "Who am I?", "2x1".

KIRISH

Bizga ma'lumki, bugungi ilm-fan va texnika rivojlanayotgan bu davrda iqtidorli, har sohada faol yoshlarga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Shunday talabchan, qiziqqon, o'rgangan bilim va ko'nikmalarini hayotda qo'llay oladigan yoshlarning me'mori bevosita o'qituvchilardir. O'qituvchilarning dars jarayonini bolalarni fikrlashga undovchi metodik usullar orqali olib borishi, rang-barang materiallardan foydalanishi o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini, badiiy asarlarga mehrini oshiradi. Xalqimizning ardoqli yozuvchisi O'tkir Hoshimovning ijodini o'rganish, uning asarlaridan to'g'ri xulosalar chiqarish bizga hayot yo'limizni yorituvchi mash'al desak mubolag'a bo'lmaydi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'tkir Hoshimov: "Hamisha bir orzu bilan yashayman... Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon, hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib

bo'lgan kuni kechasi bilan uxlo olmay to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qaytadan qo'liga olganda tag'in hayajonlansa... Eng katta orzum-shu".

Haqiqatdan ham adibimiz ana shunday asarlarni yarata oldi. Farzandlik burchimni qay darajada ado etdim degan o'kinchli xayoliga javoban "Dunyoning ishlari" kitobini, urush voqealarining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazganini ko'rsatish maqsadida "Ikki eshik orasi" asarini, Abdulla Qahhor xayrixohlik xatini yozgandan keyin esa bir necha roman va qissalarni yozdi. Quyida shunday asarlar orasidan "Ikki eshik orasi" va shoirning ijodini o'rganish, mustahkamlashga oid bir qancha interfaol usullar misol qilib berilgan.

I. "Qora oyna" usuli. Bu usulda doskada katta oyna rasmi chiziladi. Oynani qora oyna deb ataymiz. Bu oynada bolalar o'zini tiniq ko'rishi uchun uni tosh orqali sindirishi kerak bo'ladi. Toshlar o'rnida esa O'tkir Hoshimov ijodiga oid ma'lumotlardan foydalanishadi. O'quvchilar bittadan ma'lumot aytadi va o'qituvchi oynani to'ldirib boraveradi. Qachonki oyna ma'lumotlar bilan to'lganda u sinadi va o'yin shu yerda yakunlanadi.




Natija. O'quvchilar ketma-ketlik bilan quyidagicha javob beradi:

1-o'quvchi. O'tkir Hoshimov 1941-yil Toshkentda Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan.

2-o'quvchi. Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetida o'qigan.

3-o'quvchi. Yozuvchining ilk asari 1962-yilda „Po‘lat chavandoz“ nomida ocherklar to‘plami tarzida nashrdan chiqqan.

4-o'quvchi. Yozuvchiga muvaffaqiyat keltirgan asar 1970-yilda nashr qilingan „Bahor qaytmaydi“ qissasi bo'ldi.



II. "2x1" usuli. Bu usul ham O'tkir Hoshimov hayoti va ijodini mustahkamlashga oid. Bunda adib hayotiga oid 2 ta to'g'ri ma'lumot va 1 ta noto'g'ri ma'lumot beriladi. O'quvchilar 1 ta noto'g'ri ma'lumotni topishlari kerak bo'ladi. Bu usul o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga undaydi va ularni tezligini oshiradi.

- 1) Toshkent haqiqati
Toshkent ovozi
O'zbekiston
- 2) Muhabbat
Umr savdosi
Cho'l havosi
- 3) Ikki eshik orasi
Bahor qaytmaydi
Tushda kechgan umrlar

Natija. Savollarga javob berish quyidagi shaklda bo'ladi:

- 1) Toshkent haqiqati ✓
Toshkent ovozi ✓
O'zbekiston ✗

Bu yerda adib ishlagan gazetalar nazarda tutilgan. O'zbekiston gazetasida ishlamaganligi uchun bu noto'g'ri javob bo'ladi.

- 2) Muhabbat ✓
Umr savdosi ✓
Cho'l havosi ✗

"Muhabbat" va "Umr savdosi" asarlari hikoya janrida, "Cho'l havosi" esa qissa janrida bo'lganligi sababli noto'g'ri javob "Cho'l havosi" bo'ladi.

- 3) Ikki eshik orasi ✓
Bahor qaytmaydi ✗
Tushda kechgan umrlar ✓

"Ikki eshik orasi" va "Tushda kechgan umrlar" asarlari roman janrida, "Bahor qaytmaydi" qissa janrida yozilgan, shuning uchun "Bahor qaytmaydi" noto'g'ri javob bo'ladi.

III. "Men kimman?" usuli. Bu usulni ko'proq badiiy asar qahramonlarini topishda qo'llash yaxshiroq. Asardagi biror qahramonning ta'rifi keltiriladi va o'quvchilar uni topishi kerak bo'ladi. Bu usul ham o'quvchilarni chuqur o'ylashga undaydi va asarlarni chuqurroq o'qib o'rganishlariga sabab bo'ladi.

1. *Oppoq, uzun yaktak kiygan, ko'krak cho'ntagida soat zanjiri yaltirab turgan chol.*
2. *Koptokdek yumaloq, past bo'yli qop-qora xotin.*
3. *Qora xotinga o'xshagan past bo'yli, ammo baquvvat, ixcham soqolli kishi.*
4. *Bo'yli tikroq, kir ko'ylak kiygan, qop-qora kallaxum bola.*

Natija. Bolalar savollarga quyidagicha javob berishlari kerak:

1. Oqsoqol
2. Qora amma
3. Husan duma
4. Kimsan

Xuddi shu shaklda boshqa qahramonlarning ta'rifi keltiriladi hamda o'quvchilar zukkolik bilan ularni topishga harakat qilishadi.

IV. "Yelpig'ich" usuli. Bu usuldan ham asarni mustahkamlash uchun keng foydalansa bo'ladi. Yelpig'ich shaklida rasm tayyorlab olinadi va o'quvchilarga asarning bosh qahramonlarining ismlarini yozish topshiriq qilib beriladi.

Natija xuddi shu shaklda bo'ladi. Bu usulni mustahkamlash darslarida qo'llasa ham bo'ladi.

V. "Smayliklar" metodi. Bu usul darsning oxirida qo'llaniladi. Doskaga 3 xil smayliklar osiladi va o'quvchilar fikri so'raladi.

1-smaylikka darsda o'quvchiga yoqqan eng yaxshi ma'lumot.

2-smaylikka darsda o'quvchini o'ylantirgan yoki unga tushunarsiz bo'lgan jumla.

3-smaylikka dars jarayonida o'quvchi yana qanday ma'lumotlarni bilishni xohlaganligini aytadi.

1 2 3

Bu usul ham o'quvchilarni ko'proq fikrlashga undaydi hamda diqqatini jamlashga yordam beradi.

MUHOKAMA

"Ikki eshik orasi" asarida insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi mahorat bilan tasvirlangan. Adib, birinchi navbatda, tinchlikka rahna solgan urushni tilga oladi. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlarini — mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshini haqida so'zlaydi. Tajribali yozuvchi roman hodisalarini teran o'rgangan uchun har bir epizod o'quvchini qalbiga jiddiy ta'sir qiladi. Asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi juda tabiiy hamda samimiyligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham asarni chuqurroq o'rganish va o'rgatish bizga go'zal fazilatlarini akslantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kunda o'qituvchilarning turli xildagi metodlardan foydalanishi ta'limning talabiga aylanib ulgurgan. Bu o'z navbatida ham o'quvchini ham o'qituvchini faollikka chaqiradi. Noan'anaviy tarzda olib boriladigan darslar o'quvchilarda zerikishni keltirib chiqarmaydi va mavzuni tezroq o'zlashtirib olishiga yordam beradi. Yuqoridagi metodlardan nafaqat adabiyotda balki boshqa fanlarda ham keng qo'llasa bo'ladi. Qay darajada qo'llay olish esa albatta o'qituvchi mahoratiga bog'liq.

REFERENCES

1. B.To'xliyev, B.Karimov,K.Usmonova, Adabiyot. 10-sinf uchun darslik,-Toshkent,2017.
2. O'.Hoshimov,Ikki eshik orasi.-Toshkent:"Sharq",2012.
3. Jaloliddin Nur, Adabiyotdan ochiq darslar. Toshkent:"Muharrir",2021.
4. <https://uz.m.wikipedia.org>
5. <https://fayllar.org>
6. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 313-318.
7. Ismoilovich, S. A. SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF THE FORMATION OF THE PSYCHOLOGY OF A HEALTHY LIFESTYLE OF FAMILIES.
8. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.
9. Саидов А., Джураев Р. Воспитание гармоничного поколения–роль спорта в формировании здорового образа жизни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.
10. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №. 4. – С. 628-630.